

INGLIZ TILINING DISKURSI VA O'ZGARUVCHANLIGI

Ergasheva Dilnoza Toxirovna

Samarqand davlat chet tillari instituti assistenti

Annotatsiya. Ushbu tezisda ingliz tilining diskursi va o'zgaruvchanligi to'g'risida fikr yuritilgan. Unda muloqot jarayonlari, ijtimoiy va madaniy kontekstning shakllari to'g'risida ma'lumot berilgan. Shuningdek ingliz tilining har bir hududda o'ziga xos tarzda rivojlanib, o'zining maxsus grammatikasi, leksikasi, talaffuzi va sintaksisi bilan farqlanishi borasida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: diskurs, pragmatika, kontekst, nutq aktlari, muloqot tili, ijtimoiy omil.

Kirish. Diskurs - bu muloqotni o'z ichiga olgan murakkab va dinamik jarayon hisoblanadi va unda ma'no ijtimoiy va madaniy kontekstlardan foydalanish orqali shakllanadi. Ingliz tili global miqyosda keng tarqalgan shu sababli, geografik, ijtimoiy va madaniy omillar ta'sirida yuqori darajada o'zgaruvchanlik va rivojlanuvchanlikni namoyish etadi.

Ushbu maqolada ingliz tilining nutq xususiyatlarini va o'zgaruvchanligini tahlil qilish, uning xususiyatlarini turli sotsiolingvistik kontekstlarda o'rganishga qaratilgan. Tadqiqot turli xil ingliz tilida so'zlashadigan davlatlarda lingvistik korpus, akademik matnlar hamda og'zaki muloqot ma'lumotlarini o'zaro taqqoslashda sifatli tahlildan foydalanadi.

Ko'plab nazariyalar va nutqni tahlil qilish vositalari ko'plab qo'llaniladigan lug'at, grammatika usullar va pragmatik me'yorlarda qanday o'zgarishlar paydo bo'lishini tekshirish uchun qo'llaniladi. Bu tekshirish natijalari shuni ko'rsatadiki, ingliz tilidagi so'zlashish nutqi turli kontekstlarda sezilarli darajada farq qiladi, bunga misol sifatida aytishimiz mumkinki, hind inglizchasi, nigeriyalik ingliz va singapur inglizlari kabi jahon inglizlarida o'ziga xos xususiyatlar paydo bo'ladi. Dunyo bo'ylab rivojlanib kelayotgan texnologiya va ijtimoiy media ta'siri, shuningdek, raqamli aloqaning yangi shakllariga olib keladigan nutq shakllarini shakllantiradi.

Ingliz tilidagi nutqi va o'zgarishlar. Ingliz tili dunyodagi eng keng tarqalgan tillardan biri bo'lib, uning global ta'siri iqtisodiy, madaniy va tarixiy omillar bilan bog'liq. Ammo shuni tushunish kerakki, ingliz tili monolit tuzilma emas, balki turli lahjalar, urg'u va sotsiolingvistik o'zgarishlar to'plamidir. Ushbu o'zgarishlar geografik, ijtimoiy, madaniy va tarixiy sharoitlar bilan shakllanadi. Ingliz tili madaniyatlar, texnologiya va jamiyatning o'zaro ta'siri orqali rivojlanishda davom etmoqda. Ushbu rivojlanish uni global dunyodagi o'zgarishlarga moslasha oladigan noyob aloqa vositasiga aylantiradi. Ingliz tilining o'zgarishlarini o'rganish nafaqat lingvistik jarayonlarni, balki ular asosidagi madaniy xilma-xillikni ham tushunishga yordam beradi.

Diskurs - bu keng tarixiy ma'nolarni yetkazish uchun tilning ijtimoiy jihatdan qo'llanilishi. Bu qo'llanilishining ijtimoiy sharoitlari, kim va qanday sharoitlarda qo'llanayotgani bilan belgilanadigan tildir. Adabiyotda diskursning ahamiyati. Har qanday turdagi nutq inson xatti-harakati va shakllanishining eng muhim elementlaridan biridir. Miyaning fikrlarni so'zlarga aylantirishi va, albatta, muloqot miyani qanday shakllantirishi bo'yicha ko'plab tadqiqotlar o'tkazildi. Ko'pgina tadqiqotlar turli tillarda so'zlashuvchilar tushunchalarni turlicha tushunishlariga qaratilgan. Shunday qilib, nutqning yaratilishi va tarqalishi inson zotining abadiyligi uchun eng muhim ahamiyatga ega. Adabiyot nutqni saqlash va dunyoni tushunishning yangi usullarini yaratishning asosiy usullaridan biridir. Boshqa madaniyatlar va boshqa davrlardagi badiiy diskurs namunalarni o'qish orqali biz ularning mualliflari qanday fikrda

ekanligini yaxshiroq tushuna olamiz. Har bir yaratilgan adabiyot asari diskurs namunasi bo‘lganligi sababli, badiiy diskursni tushunishimiz adabiyotni tushunishimiz uchun juda muhimdir.

Diskursning turlari mavjud bo‘lib, ular nutqiy, yozma, raqamli diskurslar hisoblanadi. Tilning barcha jarayonlarining o‘ziga xos jihatlari, o‘rganish metodlari va mexanizmlari mavjud. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishning ham o‘z mexanizmlari bordir. Og‘zaki nutqni tilda ifodalash uchun ma‘lum bir psixofiziologik xususiyatlar muloqot qiluvchining nutqida rivojlangan bo‘lishi kerak. Til- inson ko‘zgusidir.

Shunday ekan uni mukammallashtirishga ko‘proq ahamiyat bermog‘imiz lozim. Ingliz tilida ijtimoiy va madaniy tilni o‘rganish va ishlatish jarayoniga katta ta‘sir ko‘rsatadi. Ingliz tiliga ijobiy munosabat bo‘lgan jamiyatlarda uni o‘rganish jarayoni osonroq kechadi. Masalan, ingliz tili xalqaro aloqa vositasi sifatida ko‘riladi va boshqa madaniyatlarni o‘rganish imkoniyati kengayadi, bu esa ijtimoiy tushunchalarni kengaytiradi. Ingliz tili har bir hududda o‘ziga xos tarzda rivojlanib, o‘zining maxsus grammatikasi, leksikasi, talaffuzi va sintaksisi bilan farqlanadi.

Bugungi kunda, ingliz tili 500 milliondan ko‘proq kishining asosiy muloqot ili bo‘lib, yana 1 milliard 300 millionga yaqin inson uchun ikkinchi til hisoblanadi. dunyo bo‘ylab bitimlarning 90 foizi ingliz tilida tuzuladi. Bugungi kunda ingliz tilida ko‘plab ilmiy maruzalar, maqolalar, hisobotlar chop etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sociolinguistics. Hudson, R.A 1996 Cambridge University Press
2. English as a Global Language. Crystal, D 2003 Cambridge University Press
3. Analysing Discourse: Textual Analysis for Social Research Fairclough, N 2003 Routledge
4. How to Do Discourse Analysing: A Toolkit. Gee, J.P 2014 Routledge
5. The other Tongue: English across Cultures. Kachru, B.B. 1992 University of Illinois Press
6. English Next: Why Global English May Mean the End of ‘English as a Foreign Language. Graddol, D 2006 British Council.